

PAHLAVONQULI RAVNAQ LIRIKASIDA QO‘LLANGAN IBORALAR TAHLILI

Mohidil Usmonova,
Qarshi davlat universiteti
talabasi

Annotatsiya. Maqolada Ravnaq lirikasida qo‘llangan xalqona birliklar haqida fikr yuritiladi. Shoir g‘azallari tahlilga tortilib, ularning mazmun-mohiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ibora, ijodiy yondashuv, bayt, ma’no- mazmun, badiiy mahorat.

Ma’lumki, xalqimiz tarixida XVIII-XIX asrlar xonliklar davriga to‘g‘ri keladi va bu davr o‘zining adabiyoti, ma’lum hududlarda vujudga kelgan adabiy muhitlar bilan o‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shdi. Xususan, Xorazm adabiy muhiti va unda faoliyat yuritgan ijodkorlar Sharq mumtoz adabiyoti an‘analarini munosib davom ettirish bilan bir qatorda, adabiyotga bir qancha yangiliklar olib kirishdi. Ayniqsa, Xivada lirik janrlar shu qadar rivojlandiki, buni o‘sha davrda yaratilgan bayozlar va devonlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Pahlavonquli Ravnaq ham mazkur adabiy muhitning atoqli vakili sifatida mumtoz she’riyatimiz rivojiga sezilarli hissa qo‘shdi. “Ravnaq o‘z davrining yetuk shoirlaridan biri bo‘lib yetishdi, zamondoshlari va keyingi davrlarda o‘tgan bir qator adabiyot ahllarining ijodiyotiga samarali ta’sir etdi” [2:174].

“Devoni Ravnaq”dan o‘rin olgan g‘azallar o‘zining mazmun-mohiyati, poetik strukturasi va ifoda usulining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, biz shoirning bir qancha g‘azallarida xalqona unsurlarning, maqol va iboralarning mahorat bilan qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz. Ravnaq bu birliklarni aynan olib qo‘ymasdan, aksincha, ularni tahrirlab, ma’lum o‘zgartirishlar kiritib baytlar mazmuniga singdirib yuboradi. Quyida biz Ravnaq g‘azallarida qo‘llangan iboralar haqida to‘xtalamiz.

Nedin til ochmayin shukringg‘akim, qilding, bihamdillah,

O‘zungni bildururga aqli fahm-u xurdadon paydo [1].

Ko‘rinib turganidek, bu hamd g‘azal hisoblanadi. Bunda shoir bevosita Allohga murojaat qiladi va uning sifatlarini bayon qilishga inson aqli ojizligini ta’kidlaydi. Baytda qo‘llangan “til ochmoq” iborasi aslida xalq orasida “og‘iz ochmoq” shaklida qo‘llaniladi va biror narsa haqida gapirish, so‘zlash kabi ma’nolarni bildiradi. Ravnaq iborani adabiy tilga yaqinlashtirib qo‘llagan va bu g‘azal badiiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ongla yigitlik chog‘in olam aro mug‘tanam,

Ravnaq o‘tar ko‘z yumib ochg‘ucha davri shabob [1].

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Baytda “ko‘z ochib yumguncha” iborasi ayrim fonetik va struktur o‘zgarishlarga uchrab qo‘llangan. Shoir yoshlikning shu qadar tez o‘tib ketishini, shuning uchun bu davrdan unumli foydalanib qolish kerakligini aytadi. Aslida, umr ham xuddi shunday, bir lahzada o‘tadi ketadi. Ravnaq bu bayti bilan hayot falsafasiga ham ishora qiladi.

*O‘zgaralar boshi yetib ko‘kka bu davron aro, lek,
Baxtim etmak mani g‘am xaylig‘a pomol nedur [1].*

Bu baytda qo‘llangan “boshi ko‘kka yetmoq” iborasi xursand bo‘lish ma‘nosini bildiradi. Ravnaq bu g‘azalda “baxtim” deya taqdirini nazarda tutadi. Bu ijtimoiy ruhdagi g‘azal bo‘lganligi uchun, unda davrdan shikoyat motivlari yetakchilik qiladi. Ya‘ni shoir yashagan davr siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ziddiyatlarda boy edi va bu Ravnaq hayoti va ijodiga ham ta‘sir etmay qolmaydi.

*Ber mujda bodi subhki, dildor qaydadur,
Jon og‘zima yetushdi, labi shakarbor qaydadur [1].*

Mazkur baytdagi “jon og‘zuma yetushdi” iborasi “joni bo‘g‘ziga keldi”, “joni hiqildog‘iga keldi” tarzida qo‘llanadi va sabrning tugaganligini, toqat qolmaganligini bildiradi. Ravnaq badiiy maqsad uchun ibora tarkibini o‘zgartirib, ohoriy tashbeh yaratadi.

*Kom-u dil hosil qilurda jong‘a istig‘nosidin,
Yuz ado-u noz ila toqatni aylar toq qiz [1].*

Xalqimiz orasida “toqati toq bo‘ldi” ya‘ni sabri tugadi iborasi mavjud. Ravnaq baytida ayni shu iborani o‘ziga xos tarzda qo‘llaydi.

*Qilmas ermas marhamat huri paridin iltimos,
Ko‘z uchidin boqsa gohi ko‘rguzub ishfoq qiz [1].*

“Ko‘z uchidan qarash” mensimaslik, takabburlik belgisi sifatida ishlatiladi. Biroq baytda ibora butkul boshqa ma‘noda kelgan. Oshiq yorning birgina boqishiga ham mahtal, shuning uchun yorga ko‘z uchidan boqishni (nazar tashlashini), marhamat ko‘rgizishini so‘raydi.

*Yor diydorig‘a Ravnaq ko‘zlarim mushtoqdur,
Aylagandek Yusufini piri Kan‘on orzu [1].*

Baytdagi “ko‘zi mushtoq” iborasi intizor bo‘lib kutish degan ma‘noni anglatadi. Shuningdek, iboraning “ko‘zi to‘rt bo‘lmoq” varianti ham mavjud. Ravnaq qo‘llagan shakl esa badiiy go‘zalligi bilan boshqa variantlaridan ajralib turadi. Keyingi misrada talmeh san‘atini qo‘llab, Yusuf obrazini keltirish orqali shoir o‘z ruhiy holatini yana bir karra kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Pahlavonquli Ravnaq lirikasida qo‘llangan iboralar g‘azal mazmun-mohiyatini har jihatdan to‘ldirishga va poetik jihatdan mukammallashtirishga, tasvirning ta‘sirliligini oshirishga xizmat qilgan. Shoirning

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

iboralarni aynan ko‘chirib olmasdan, ularni qo‘llashda ijodiy yondashuvi ham sheʼrning badiiy qiymatini yana bir karra oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Devoni Ravnaq. Qo‘lyozma. O‘zR FASHI fondi. inv.№922
2. V.Abdullayev. “O‘zbek adabiyoti tarixi” Toshkent 1967.
3. Sh.Rahmatullayev. “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, - Toshkent, O‘qituvchi. 1978.
4. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
5. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
6. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.